

**O'ZBEKISTONDA SUDLAR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH BOSQICHLARI**

**Turobova Munira**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistri*

**Annotatsiya:** *So'nggi yillarda sudlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishni erkinlashtirish, umuman odil sudlovga erishishni oshirish hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini berdi. Olib borilayotgan o'zgarishlarni bosqichlarga bo'lish ushbu faoliyatni takomillashtirish uchun yanada muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi. Quyida sudlar faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq ishlar amalga oshirish davri bilan bog'liq bosqichlarga bo'lingan holda o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *raqamlashtirish, "E-SUD" axborot tizimi, "E-Hujjat" onlayn elektron hujjatlar aylanish tizimi, "Qarorlar to'plami" rukni, "Elektron to'lov tizimi" rukni, "O'zbekistonda qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik" qo'shma loyihasi.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng qonun ustuvorligi va kuchli fuqarolik jamiyati asosida boshqariladigan demokratik davlat qurishning o'ziga xos yo'li tanlangan holda, ichki va tashqi siyosatda inson huquq va manfaatlarini ustuvor qilib qo'yildi. Bizga ma'lumki, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish tizimida markaziy o'rinlardan birini albatta sud egallaydi.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasi jismoniy va yuridik shaxslarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudlarga tobora ko'proq murojaat etilayotganidan dalolat beradi.

Bu kabi murojaatlarni amalga oshirish jarayonida sud amaliyotida zamon talablariga mos hamda to'liq javob beradigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Xususan, hujjat oqimini elektron shaklga o'tkazish sud ishlarini ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, shuningdek, qog'oz sarfini kamaytiradi va eng muhimi adolat ustuvorligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, Respublikamizda davlat boshqaruvi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, elektron hujjat aylanmasi tizimini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza yaratildi va bu tizim yanada takomillashtirilmoqda. Ushbu jarayonni bosqichlarga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini raqamlashtirishning bosqichini Respublikamizda ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlardan kelib chiqqan holda quyidagi 3 ta bosqichga bo'lish mumkin:

- Dastlabki bosqich;

- Sud jarayonini raqamlashtirish bosqichi;
- Sudlar faoliyatini raqamlashtirish bosqichi.

1. Dastlabki bosqich – Respublikamizda sudlar faoliyati raqamlashtirilgan dastlabki davr bo'lib, ushbu davr 1993-2013 yillarni o'z ichiga oladi.

Avvalo, 2005-yildan boshlab xo'jalik sudlarida ichki elektron ma'lumot bazasi ishga tushirilib, elektron ish yuritishga dastlabki qadam qo'yilganini alohida ta'kidlash joiz [1].

Aynan ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 2-avgustdagi PF-4459-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrda 346-son Qarori ijrosini ta'minlash hamda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini, xususan, elektron hujjat almashinuvini joriy etish, sohaga oid axborot resurslari va axborot tizimlarini ishlab chiqish hamda tatbiq etish, sud sohasida interfaol xizmatlarni taqdim etish maqsadida 2013-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va BMT TD tomonidan "E-SUD" Milliy elektron sudlov axborot tizimi yaratildi.

"E-SUD" axborot tizimini joriy etish natijasida fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Zangiota tumanlararo sudida buyruq tartibida ish yuritish jarayoni, ya'ni sudga arizani topshirish, arizani qabul qilish, qayta ishlash, protsessual aktlarni (sud ajrimi yoki sud buyrug'i) qabul qilish ishlari to'liq avtomatlashtirildi.

Buyruq tartibida ish yuritishni avtomatlashtirish doirasida sud buyrug'i chiqarish to'g'risidagi talabni ko'rib chiqish yuzasidan 11 ta ariza va 4 turdagi ajrimlarning shablonlari ishlab chiqildi va tizimga kiritildi. 2014-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, AQSH Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining "O'zbekistonda qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik" qo'shma loyihasi o'z ishini boshladi. Ushbu loyihaning maqsadlari ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va joriy etish asosida respublikamiz sudlov tizimining ochiqligini ta'minlash, sud organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud tizimi qonunchilik bazasini takomillashtirish hamda sud tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali milliy elektron sudlovni joriy etishdan iborat [2].

2. Sud jarayonini raqamlashtirish bosqichi. Ushbu bosqich 2014-2019 yillarni o'z ichiga olib, ushbu davrda ham sudlari faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan va sohaviy tadbirlar amalga oshirilgan.

Xususan, "E-SUD" tizimi 2014-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va BMT taraqqiyot dasturining "O'zbekistonda qonun ustuvorligiga sheriklik" qo'shma loyihasi doirasida amalga oshirilmogda. Uning asosiy vazifalari sudlarga taqdim etilgan da'vo arizalari, shikoyat va iltimosnomalarni ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, sud tizimining

ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, byurokratik to'siqlarni bartaraf yetish, adolatning erkinligini oshirish, fuqarolar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. 2018-yildan boshlab tizim mamlakatning barcha tumanlararo, tuman (shahar) va viloyat fuqarolik sudlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda [3].

Elektron bazalar modernizatsiyalashtirilib, 2014-yilning yanvar oyidan xo'jalik sudlari faoliyati haqidagi to'liq ma'lumotlarni birlashtirgan "E-Hujjat" onlayn elektron hujjatlar aylanish tizimi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu bilan xo'jalik sudlarida elektron ish yuritish yagona korporativ tarmoq, ya'ni markazlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasi orqali amalga oshirilishi joriy etildi. Tadbirkorlik subyektlari hamda barcha sud protsessi ishtirokchilariga qulayliklar yaratish maqsadida 2014-yil 1-sentyabrdan xo'jalik sudlarida sud majlislarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilishi tizimimizda eng zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish ishlarini yangi bosqichga ko'tardi. 2015-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan xo'jalik sudlarining sud buyrug'i hamda ijro varaqasini elektron shaklda yuborish va qabul qilish imkoniyati yaratilganligi ham mazkur sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Bungacha amalda bo'lgan tartib ko'p vaqt hamda mehnatni talab etgan bo'lsa, endilikda u ancha soddalashtirildi. Sud buyrug'i yoki ijro varaqasi yagona elektron ma'lumotlar bazasi orqali sudya kompyuterida avtomatik tarzda tayyorlanadi, u sudyaning elektron raqamli imzosi bilan imzolashtiriladi. Elektron shakldagi ijro hujjati xo'jalik sudlari yagona elektron ma'lumotlar bazasida avtomatik tarzda ro'yxatdan o'tkazilib, uning to'liq hisobotini yuritib borish yo'lga qo'yilgan [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgustdagi "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2017-2020 yillarda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish Dasturi tasdiqlangan.

Mazkur Qaror bilan sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etishning asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

birinchidan, sudlar faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va tezkorligini ta'minlash, sudlov ishlarini yuritish sifati va aholining odil sudlovdan xabardorlik darajasini oshirish, sud xodimlari tomonidan sansalorlik, byurokratizm va suiiste'molchilik faktlariga barham berish;

ikkinchidan, sudlarda ishlarining o'z vaqtida ko'rilishini nazorat qilishning samarali tizimini yaratish, sudlov ishlarini yuritishdagi muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni hal etish choralarini ko'rish maqsadida sudlar ishlarini avtomatlashtirish va ularning faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tizimlashtirish;

uchinchidan, odil sudlovni amalga oshirish hamda sudlar qarorlarining ijrosini ta'minlashda sudlarning surishtiruv, dastlabki tergov va majburiy ijro organlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash;

to'rtinchidan, sudlarda ish yuritish samaradorligi oshirilishini, sudlar faoliyati to'g'risidagi axborot ochiqligini, shuningdek, aholiga va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar ro'yxati kengaytirilishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlaydigan axborot tizimlari va resurslarini takomillashtirish;

beshinchidan, sudyalari va sudlar xodimlarining ishda zamonaviy kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda ularning kompyuter savodxonligi, amaliy ko'nikmalari darajasini oshirish;

oltinchidan, sudlar tizimida axborot xavfsizligini va elektron hujjatlarning xavfsiz aylanishini ta'minlash.

2018-yilning 1-yanvaridan boshlab, sudlar faoliyatiga joriy etilgan yagona markazlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasi sudlarda ishlarning o'z vaqtida ko'rilishini monitoring qilishning samarali tizimini yaratishda, sudlov ishlarini yuritishdagi muammolar va kamchiliklarni aniqlashda hamda ularni hal etish choralari ko'rishda, shuningdek sudlar ishlarini avtomatlashtirishda va ularning faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tizimlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, sudlar faoliyatiga joriy etilgan markazlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasi orqali sudlarning quyidagi asosiy sohalari ham to'liq avtomatlashtirildi.

Sudlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlaridan bir manzil asosida foydalanish, aholini sudlar tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlari bilan yagona manzil asosida xabardor qilib borish, sudlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlaridan foydalanish tartibini soddalashtirish maqsadlarida Oliy sudning Interaktiv xizmatlari portali (my.sud.uz) joriy etildi.

2018-yil dekabr oyida "Qarorlar to'plami" (public.sud) rukni orqali qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini tizimli ravishda e'lon qilish amaliyoti joriy qilindi.

2019-yil yanvar oyidan ishga doir hujjatlarni faqat elektron shaklda saqlash va ishlarning elektron arxivini yaratish maqsadida iqtisodiy sudlarda ishlarni elektron ko'rinishda shakllantirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

2019-yil aprel oyida "Elektron to'lov tizimi" (billing.sud.uz) rukni orqali quyidagi qulayliklarni yaratish maqsadida davlat bojlari va sudga murojaat qilishdagi yig'imlar summasi hisobini yuritish uchun yagona elektron to'lov tizimi joriy etildi.

Mazkur tizim fuqarolar hamda tadbirkorlarga sudga murojaat qilishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan to'lovlarni tezkorligi va aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi [5].

3. Sud faoliyatini raqamlashtirish bosqichi - 2020-2023 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, aynan ushbu bosqichda mazkur sohada keskin burilishlar sodir bo'ldi. Sudlar faoliyatini raqamlashtirishning yangi bosqichi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2020-yil 3-sentyabrda “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4818-sonli Qarori bilan boshlab berildi.

Ushbu Qaror bilan quyidagilar sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirishning keyingi bosqichdagi vazifalari etib belgilandi:

- fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ko’rsatiladigan interaktiv elektron xizmatlar turlarini kengaytirish, har bir murojaatni ko’rib chiqish jarayonining onlayn kuzatib borilishini ta’minlash, sud binolarida interaktiv xizmatlardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish;

- sudlarda odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta’minlash uchun vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan elektron ma’lumotlar almashinuvini yanada kengaytirish;

- maxsus axborot dasturlarini joriy etish orqali sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffoqligini ta’minlash;

- sud majlislarida masofadan turib, jumladan mobil qurilmalar va elektron hamkorlikning boshqa shakllari orqali ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek ish bo’yicha taraflar uchun sud qarorlarini onlayn tarzda olish imkoniyatini yaratish;

- sudning axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlari axborot va kiberxavfsizligini ta’minlash, xizmat axborotlari va ma’lumotlarini kompleks himoya qilish bo’yicha choralarni kuchaytirish [6].

Qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida mazkur qaror bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi 2020-2023 yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlandi:

2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha sudlarda sud majlislarini ish bo’yicha taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislari bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirish;

2021-yil 1-iyuldan boshlab apellyatsiya va kassatsiya instantsiyasi sudlarida ishlar ni sudyalar o’rtasida avtomatik ravishda taqsimlash;

2021-yil 1-oktyabrdan boshlab barcha ishtirokchilarni sud majlislarining vaqti va joyi haqida “SMS” xabar orqali bepul xabardor qilish;

2022-yil 1-yanvardan boshlab sud qarorlarini ish bo’yicha taraflarga onlayn tarzda, ularning iltimosnomasi bo’yicha esa qog’oz shaklida taqsim etish;

2022-yil 1-iyulga qadar sud hokimiyati organlari faoliyatida, shu jumladan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga odil sudlovga erishishda qulaylik yaratish maqsadida 10 ga yaqin interaktiv xizmatlar ko’rsatishni yo’lga qo’yish.

2021-yil yanvar oyidan boshlab, barcha sudlarda sud majlislarini ish bo’yicha taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislari bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirish tizimi joriy etildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda sudlov tizimini raqamlashtirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2023 — 2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasida sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish [7] Strategiya doirasida odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi.

Bundan tashqari, odil sudlov sifatini tubdan yaxshilash maqsadida Yuqori sud instansiyalarining sud qarorlarini qayta ko'rish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholi uchun tushunarli va qulay, shuningdek, quyi sud xatolarini o'z vaqtida to'g'rilashga ko'mak beruvchi mexanizmlarni yo'lga qo'yish ko'zda tutildi.

Shuningdek, Strategiyada idoralararo yagona integratsion platforma yaratish, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini to'liq raqamli texnologiyaga o'tkazish, yagona platforma asosida axborot tizimlarini integratsiya qilish, axborot va ma'lumotlarning kiberxavfsizligini ta'minlash vazialari qo'yildi.

Eng muhimi, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish, odil sudlov sohasida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun kasbiy tayyorgarlikni zarur darajada ta'minlash ustuvor maqsad sifatida belgilanan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/8295-tadbirkorlar\\_huhuqlari\\_qonun\\_himoyasida](https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/8295-tadbirkorlar_huhuqlari_qonun_himoyasida) <https://xs.uz/uz>
2. "E-SUD" Milliy elektron sudlov axborot tizimi (foydalanuvchilar uchun amaliy qo'llanma Toshkent-2015, 9-bet
3. <https://sud.uz/ru/sistema-elektronnogo-sudoproizvodstvo>
4. [https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/8295-tadbirkorlar\\_huhuqlari\\_qonun\\_himoyasida](https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/8295-tadbirkorlar_huhuqlari_qonun_himoyasida) <https://xs.uz/uz>
5. Odil sudlov (Huquqiy ilmiy-amaliy nashr) № 3/2021, 32-34 betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 3-sentyabr PQ-4818-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.09.2020-y., 07/20/4818/1255-son)

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 16-yanvar PF-11-son (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2023-y., 06/23/11/0033-son)